

**VATANPARVARLIK TUSHUNCHASINING
ILMIY-NAZARIYI TALQINI.**

Baratov Baxtiyor Kodirovich¹

¹ Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Valijonova Durdon Sherzodjon qizi¹

¹ Ta'lim va tarbiya nazariyasi 1-kurs magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 26.03.2024 Maqolada vatanparvarlik tuhunchasi,

Revised: 27.03.2024 vatanparvarlik tushunchasining asosiy mohiyati nima

Accepted: 28.03.2024 ekanligi uning jamiyat va insonlar hayotidagi o'rni

va roli haqida yoritib berilgan.

KALIT SO'ZLAR:

vatanparvarlik,
shaxs, jamiyat,
mohiyat, insonparvarlik
tushunchasi, To'maris
va Shiroq jasorati,
Amir Temur, Suqrot
ta'limoti.

KIRISH. Har bir insonning o'z makoni va vatani bo'ladi. Shu ma'noda ona vatan iborasi kishilar orasida aziz, muqaddas vatanga sadoqat, tushunchalari bilan bir qatorda turadi. Umuman olganda vatan onaga qiyoslanadi. Onaga xiyonat qilib bo'lмаганидек, vatanga ham yurtga sodiq bo'lish lozim. Vatan tushunchasi tarixdan rivojlanib, shakllanib kelmoqda. Vatanparvarlik bu ona zaminni sevish, e'zozlash, uni asrab-avaylashda o'z ifodasini topadi. Shundan kelib chiqqan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ham vatanparvarlik ruhini singdirish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Vatani uchun jon fido qilgan buyuk ajdodlar, allomalar va shaxslarning ibratli hayot yo'llarini ularga uqtirib, tushuntirib borish maqsadga muvofiq. Shu o'rinda Abdulla Avloniyning Turkiy Guliston yoxud axloq kitobida "Har kimning tug'ilgan joyi uning vatani deyilur" deyilgan. Vatanparvarlik insonning o'z yurti manfaatlarini himoya qilishi, uning har bir qarich yerini ko'z qorachig'iday asrashi, zarur b'lsa vatani uchun jonini ham fido qilishida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Milliy o'zlikni anglash, vatanni sevish inson taqdirida juda katt rol o'ynaydi. Zero, birinchi prezidentimiz Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida shunday degan edi; tarix

xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zligini anglashni milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi" deb ta'kidlagan edi. Qadimgi grek faylasufi Suqrot O'zini anglagan inson, vatanni sevgan inson o'zi uchun nima foydali va nimalarga qodir ekanligini yaxshi tushunadi. U qo'lidan keladigan ish bilan shug'ullanish asnosida o'z ehtiyojini qondiradi va saodatga erishadi" deb ta'kidlab o'tgan. Bundan kelib chiqadiki, vatanga muhabbat bu vatanparvarlikning asl mohiyatidir. Vatanni yurakdan his qilmoq va sevmoq kerak. Buning uchun sog'lom , aqli va dovyurak bo'lmoq lozim. Ingliz shoiri J.Bayron; Kimki o'z yurtini sevmasa , u hech nimani seva olmaydi ,-degan edi. Vatanni qalbdan chuqur his qilish uchun ham, xalqning vatanparvarlik namunalarini ko'rsatish uchun ham vatan hur, mustaqil bo'lishi shart. Vatan mehrini, vatan tuyg'usini uning mo'tabarligi-yu ulug'verligini so'z bilan ifodalash qiyin. Mavlono Fuzuliyning; mening bitta hayotim bor, bordi-yu, mingta hayotga ega bo'lgan taqdirimda ham hammasini vatan uchun sarflagan bo'lur edim- degan so'zlarini vatanni his qilish zaruratini anglatadi. Shu o'rinda bir necha yozuvchilar, shoirlar, buyuk allomalarning asarlarida ham vatan tuyg'usi, vatanga bo'lgan muhabbat talqini asosiy o'rinda turadi. Shu ma'noda Imam Buxoriy, Termizi, Samarcandiy kabi buyuk allomalar va bundan tashqari islom ta'limoti rivojiga ham bemisl hissa qo'shgan Bahouddin Naqshband va Xoja Ahror valiydek buyuk zotlarni yodga olish maqsadga muvofiq. Vatanparlik insonning o'z yurti manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi fidoyiligi, uning bir qarich tuprog'ini ham ko'z qorachig'iday asrash lozimligi ko'zda tutiladi. Vatanparvarlik o'z vatanining mustaqilligini asrab-avaylash, uning yo'lida fidokorona mehnat qilish, vatan posbonligiga tayyor bo'lish kerak bo'lsa vatani uchun o'z aziz jonidan kechish nazarda tutiladi. Shu o'rinda dovyurak Shiroqning jasoratini eslab o'tish joiz bo'ladi. Bundan massagetlar malikasi To'maris va Alpomish kabi qahramonlar jasorati, shijoati va vatanga bo'lgan muhabbati vatanparvarlik namunasining yorqin misoli bo'la oladi. Vatanparvarlik bu iymon-e'tiqodga aylangan yuksak ma'naviyatdir. Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga juda katta e'tibor berib kelinadi. Chunki bunday tuyg'ular bolaga yoshligidan singdirib borilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchisi ham keng ma'noda bilimli, salohiyatli eng asosiysi esa vatanparvarlik tushunchasi haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bashariyat o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida tinch-totuvlikka intilib kelgan. Biroq har doim ham bu maqsadga erishish oson bo'lмаган. Agar tarixga nazar tashlasak, insonlarning boshi bir necha qirg'in-barot urushlardan chiqmaganin ko'rishimiz mumkin. Buning natijasida tinchlik, xavfsizlikni ta'minlash masalasi hanuzgacha insoniyat oldidagi eng olamshumul muammo bo'lib kelayotganidan dalolat beradi. Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek Movarounnahrga podshohlik qilgan 40 yil mobaynida

mamlakatda tinchlik, barqarorlik bo'lgani sababli mamlakatda ilm-fan, madaniyat yuksak taraqqiy etgan, rivojlangan. Ko'hna zaminimiz gullab-yashnagan. Bularning asosiy sababi aqlii, ma'naviyatli odil podshoning borligi va eng asosiysi yurtning tinchligi osoyishtaligida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunga kelib vatan haqida yurt tinchligi haqida alyorlar, dostonlar, qasidalar bitilmoqda. Shu o'rinda bolalar ijodida ham bu sezilarli natijalarini ko'rsatmoqda. Xususan, bolalar shoirlari, yozuvchilari ham o'z asarlarida vatanparvarlikni, vatanni sevishni targ'ib qilib kelishmoqda. Bu esa o'quvchilarni yanada vatanga muhabbat ruhida kamol topishga yordam beradi. Misol uchun Muhammad Yusuf, Akmal Mirzo, Po'lat Mo'min, Anvar Obidjon kabi mashhur shoirlarimiz ijodida vatanparvarlik mavzusi yetakchi o'rnlarda turadi. Ularning tili sodda, ravon, xalqchil, tushunarli va eng asosiysi yosh-u qari bir xilda mutoala qilsa arzirli tilda bolalar tushunadigan usul bilan yozilgan. Bu esa bolalar tushunishi uchun asosiy mezon hisoblanadi. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'qituvchisi dars mobaynida o'quvchilarga vatanparvarlik g'oyasi targ'ib qilingan har xil hikoyalar, rivoyatlar va bundan tashqari hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda turlicha multimedia vositalaridan foydalangan holda dars mashg'ulotlarini tashkil etsa o'yaymanki, ko'zlangan maqsadga va vazifaga erishiladi.

XULOSA

Xullas, insonparvarlik, vatanparvarlik va tinchliksevarlik sharq xalqlari hayotiy tajribasi va taraqqiyotida asosiy ma'naviy mezonlardan bo'lib kelgan. Bugungi demokratik va huquqiy jamiyatni shakllantirishda ham bu tushunchalar e'tibordan chetda qolayotgani yo'q. Aksincha bugungi yangi jamiyatning ham asosiy poydevori aynan shu tushunchalar zamirida qad rostlamoqda. Bu esa jamiyat a'zolaridan ma'naviy yetuklik va yuksak onglilikni talab qiladi. Vatanni sevish, ardoqlash har bir zamon va makonda mavjud bo'lib kelgan. Shu ma'noda, hozirgi yosh avlodni mana shunday ma'naviy boy, yetuk qilib tarbiyalash bizdan, hammamizdan juda katta kuch va mas'uliyatni talab qiladi. Bu borada hammamiz birlashmog'imiz, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilmog'imiz darkor. Zero bu vatan hammamizniki ekanligini yoddan chiqarmaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.H.Nosirxo'jayev, M.F.Lafasov. Ma'naviyat asoslari. Toshkent. Sharq Nashriyoti, 2005.
2. I.Karimov. Turkiston-umumiy uyimiz. Toshkent. O'zbekiston, 1995.
3. A. Ibrohimov, X.Sultonov, N. Jo'rayev. Vatan tuyg'usi. Toshkent. O'zbekiston, 1996.
4. A.Zunnunov, M.Xayrullayev. Pedagogika tarixi. Toshkent. Sharq nashriyoti 2000.
5. N.M.O'rinoval, I.I.Tuychiyeva, B.X.Baydjanov. Umumiy pedagogika. Farg'ona Davlat Universiteti.
6. B.S.Siddiqov. D.F.To'xtasinov. N.Q.Olimova. Pedagogika.(darslik) Farg'ona 2023.

JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH, MODERN VIEWS AND INNOVATIONS

Volume 1, March, 2025

<https://spaceknowladge.com>

7. N.A.Shermuhamedova. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Toshkent.
 8. Ziyonet. Wikipedia.
 9. Самиева, Г. Т., & Аликулов, Х. Т. (2023). НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН И ПЕРЕХОД В «ЗЕЛЕНУЮ ЭКОНОМИКУ». Экономика и социум, (11 (114)-1), 994-998.
 10. Samieva, G. T., & ugli Alikulov, K. T. (2024). MINTAQADA “YASHIL IQTISODIYOT” ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O ‘SISHNI TA’MINLASH MASALALARI. THE INNOVATION ECONOMY, 4(04).
 11. Aliqulov, H. (2023). “YASHIL IQTISODIYOT”–KELAJAK IQTISODIYOTING ASOSI. Nashrlar, 474-477.
 12. Matqosimova, M. E. Q. (2022). SMS LARDA ELLIPTIK STRUKTURALAR. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(12), 181-186.
 13. Тахирова, М. А. (2021). Педагогические условия организации семинарских, лабораторных и практических занятий в вузе. Academic research in educational sciences, 2(3), 535-543.
 14. Takhirova, M. (2020). Improving speech skills of students based on projection of educational objectives in Russian language classes. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(7), 8063-8075.
 15. Abdullaeva, S. A., Lutfillaev, M. H., & Takhirova, M. A. (2020). VII. THE PROBLEMS OF FORMATION OF A SINGLE INFORMATION-EDUCATIONAL ENVIRONMENT. INNOVATIONS AND MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM, 155.
 16. Abdullaeva, S. A., Lutfillaev, M. H., & Takhirova, M. A. (2020). IMPLEMENTATION OF PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS SOFTWARE IN THE EDUCATIONAL PROCESS AS A FACTOR OF PERFECTION OF PREVENTIVE WORK TO REDUCE THE GROWTH OF CRIMINAL AGENCIES AMONG STUDENTS. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 8, pp. 155-161). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
 17. Masalieva, O. (2020). The role of Russian scientists in the source study of the bukhara khanate. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(5), 1540-1546.
 18. Masalievna, M. O., & Muhitdinovich, J. Z. (2020). The Illumination of Bukhara Khans' Building Enterprise in the Some Historical Sources. Test Engineering and Management, 83(5-6), 1803-1811.
 19. Macaliieva, O. (2004). Амир Музффарнинг тарихнавис ўғиллари. Мозийдан садо, (2), 22.
 20. Masalieva, O. M. (2021, November). THE PRINCE OF BUKHARA SAYYID MUHAMMAD NASIR AND HIS SCIENTIFIC HERITAGE. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 182-185).
-